

## SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING PEDAGOGIK MULOQOTGA TA'SIRI

*Mamajonov Adhamjon Akramjon o'g'li*

*Namangan davlat Pedagogika instituti magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarining zamonaviy ta'lim jarayonidagi o'rni va pedagogik muloqotga ta'siri keng qamrovli o'rganilgan. Maqolada sun'iy intellekt vositalarining o'qituvchi-o'quvchi munosabatlariga, dars jarayoniga va ta'lim sifatiga qanday ta'sir ko'rsatayotgani tahlil qilingan. Sun'iy intellektning pedagogik muloqotga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatuvchi jihatlari aniqlangan. Shuningdek, texnologiyalarning kelajakdagi imkoniyatlari va o'qituvchi roliga ta'siri yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** sun'iy intellekt, pedagogik muloqot, ta'lim texnologiyalari, raqamli ta'lim, ChatGPT, o'qituvchi, o'quvchi, shaxsiy ta'lim, raqamli etika.

## THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES ON PEDAGOGICAL COMMUNICATION

**Abstract:** This article provides a comprehensive study of the role of artificial intelligence technologies in the modern educational process and their impact on pedagogical communication. The article analyzes how artificial intelligence tools are affecting teacher-student relationships, the learning process, and the quality of education. Both the positive and negative aspects of artificial intelligence's influence on pedagogical communication have been identified. Furthermore, the future potential of these technologies and their impact on the role of the teacher are examined.

**Keywords:** artificial intelligence, pedagogical communication, educational technologies, digital education, personalized learning, digital ethics.

## ВЛИЯНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ОБЩЕНИЕ

**Аннотация:** В данной статье широко исследована роль технологий искусственного интеллекта в современном образовательном процессе и их влияние на педагогическое общение. В статье анализируется, как инструменты искусственного интеллекта воздействуют на взаимоотношения учителя и ученика, на ход урока и качество образования. Выявлены положительные и отрицательные аспекты влияния искусственного интеллекта на педагогическое общение. Кроме того, освещены будущие возможности технологий и их влияние на роль учителя.

**Ключевые слова:** искусственный интеллект, педагогическое общение, образовательные технологии, цифровое образование, персонализированное обучение, цифровая этика.

## KIRISH

Bugungi kunda, texnologiyalar shunchalik tez rivojlanmoqda zamonaviy ta'lim tizimi ham bu o'zgarishlardan chetda qolmayapti. Umuman olganda hozirgi global axborot texnologiyalar taraqqiyot davrida sun'iy intellekt jamiyatning barcha bo'g'inlariga jumladan, o'quv jarayoniga ham ulkan ta'sir ko'rsatmoqda. Mavzuning dolzarbligi shundaki, sun'iy intellekt hozirgi kunda jamiyatimizning barcha bo'g'inlarining ich-ichigacha kirib bormoqda xususan, ta'lim jarayoniga ham, chunki bu strategik va hayotiy zaruriyatga aylanib ulgurgan dolzarb masaladir. O'zbekistonda aholi soni shiddat bilan o'sib bormoqda, bu esa o'z navbatida maktablar va oliy ta'lim muassasalarida o'quvchilar sonining keskin ortishiga olib kelyapti. Natijada bitta sinfda o'quvchilar sonining ko'payishi sababli, o'qituvchi har bir bola bilan individual pedagogik muloqot qilishda muammolar yzuaga kelmoqda. O'qituvchi uchun ushbu muammolarni kamaytirish maqsadida sun'iy intellekt asosidagi chat-botlar va virtual asistentlar o'qituvchining yuklamasini kamaytiradi. Ular hozirgi kunda takroriy savollarga javob berish, uy vazifalarini tekshirishni o'z zimmasiga oladi. Natijada, o'qituvchida o'quvchilar bilan ma'naviy, tarbiyaviy va chuqurroq shaxsiy muloqot qilish uchun vaqt aratish imkoni paydo bo'ladi.. Sun'iy intellektga asoslangan zamonaviy texnologiyalar ta'lim samaradorligini oshirishda ulkan imkoniyatlar yaratish bilan birga, jonli muloqotni susaytirish va ta'limni mexaniklashtirib yuborish kabi jiddiy xavflarni ham yuzaga keltirmoqda. Garchi bir qator xorijiy tadqiqotlarda sun'iy intellekt ning ta'limdagi roli o'rganilgan bo'lsa-da, milliy ta'lim muhitida uning pedagogik muloqotga ta'siri hali yetarlicha tadqiq etilmagan.

Sun'iy intellekt texnologiyalarining pedagogik muloqotga ta'sirini o'rganish, uning ijobiy va salbiy jihatlarini aniqlash hamda o'qituvchi-o'quvchi munosabatlarida yuzaga kelayotgan yangi muammolarni tahlil qilishdan iborat. Mamlakatimizda hozirgi kunda ta'lim jarayonida o'quvchilar bilan ishlashda sun'iy intellekt asosida har bir o'quvchiga individual yondashuv olib borish maqsadida zamonaviy platformalar va chat-botlar yaratilmoqda masalan: "Ibrat Farzandlari, Mutolaa, Salom AI" va boshqa shu kabi loyihalar amalda qo'llanilib kelinmoqda bu faqat o'quvchining emas balki o'qituvchining ham o'z shaxsiy

kompetensiyalarini doimiy ravishda rivojlantirib borish uchun samarali xizmat qilib kelmoqda. Bundan tashqari yurtimizda har bir qatlam vakillari sun'iy intellekt kurslarida doimiy o'qitib kelinmoqda.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Sun'iy intellekt texnologiyalarining pedagogik muloqotga ta'sirini o'rganish uchun xalqaro va mahalliy ilmiy adabiyotlar, nazariy konsepsiyalar hamda statistik ma'lumotlar keng ko'lamda tahlil qilindi. Tadqiqot metodologiyasi empirik ma'lumotlar yig'ishga emas, nazariy tahlil va qiyosiy yondashuvga asoslanadi. Sun'iy intellektning ta'lim sohasiga kirib kelishi "ta'limdagi sun'iy intellekt" nomi bilan mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida tan olingan. Holmes, Bialik va Fadel ta'kidlashicha, sun'iy intellekt o'qituvchini almashtira olmaydi, chunki insoniy muloqot, empatsiya va ijodiy fikrlash hech qachon to'liq avtomatlashtirilmaydi. Biroq sun'iy intellekt ning keng tarqalishi bilan o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi bevosita muloqot hajmi qisqarib, uning sifati o'zgarib bormoqda. Zawacki-Richter va boshqalar 146 ta xalqaro maqolani tahlil qilib, sun'iy intellekt ning ta'limdagi qo'llanilishini to'rt yo'nalishda tasniflagan: baholash, ta'limni moslashtirish, ma'muriy jarayonlar va muloqotni qo'llab-quvvatlash. Shunisi e'tiborliki, nashr etilgan ishlarning atigi 12% bevosita pedagogik muloqotni o'rganishga bag'ishlangan — bu esa ilmiy bo'shliq mavjudligidan dalolat beradi. UNESCO ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'ylab 60 dan ortiq davlatlarning ta'lim tizimiga sun'iy intellektga asoslanga zamonaviy texnologiyalar va platformalar joriy etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich har yili 30% ga o'sib bormoqda. Nazariy asos sifatida bir qator yirik olimlarning konsepsiyalaridan foydalanildi. A. A. Leontyev muloqotni mustaqil faoliyat turi sifatida ta'riflab, uni kommunikativ, interaktiv va perseptiv tomonlarning birligi deb belgilagan. Uning nazariyasiga ko'ra, pedagogik muloqot faqat ma'lumot uzatish vositasi emas, balki o'quvchi shaxsini shakllantirishning asosiy mexanizmidir. V. A. Kan-Kalik esa pedagogik muloqotni besh uslubga ajratgan: hamkorlikka, do'stona munosabatga, masofani saqlashga, qo'rqitishga va yaltiroqlikka asoslangan muloqot. Bundan tashqari, Vygotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasi ham tadqiqotda muhim o'rin tutdi — sun'iy intellekt bu zonada o'qituvchi vazifasini qay darajada bajara olishi

yoki insoniy muloqotni siqib chiqarishi masalasi tahlil qilindi. O'zbek pedagogika fanida sun'iy intellekt ning pedagogik muloqotga ta'siri hali mustaqil tadqiqot ob'ekti sifatida yetarlicha ko'rib chiqilmagan. Mavjud mahalliy ishlar asosan sun'iy intellekt ni texnik vosita sifatida tavsiflash bilan cheklanib, uning o'qituvchi-o'quvchi munosabatlariga chuqur ta'sirini tahlil qilmagan. "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi doirasida ta'limni raqamlashtirish jadal olib borilayotgan bir paytda, bu bo'shliqni to'ldirish alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotning ob'ekti — oliy ta'lim muassasalarida sun'iy intellekt texnologiyalari sharoitida kechayotgan pedagogik muloqot jarayoni. Predmeti — sun'iy intellekt vositalarining o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi jonli muloqotga ko'rsatayotgan ijobiy va salbiy ta'siri hamda ushbu munosabatlarning yangi shakllar kasb etish tendensiyalari.

### METADOLODIYA

Holmes va Zawacki-Richter asarlari tahlil qilinib, sun'iy intellekt ning pedagogik muloqotga ta'siriga oid umumiy tendensiyalar aniqlandi va o'zbek ta'lim muhitiga tatbiq etildi. Qiyosiy tahlil metodi. Finlyandiya ta'lim tizimidagi sun'iy intellekt tajribalari, Janubiy Koreyadagi "AI tutor" platformalari va O'zbekistondagi an'anaviy pedagogik muloqot shakllari taqqoslandi. Tizimli yondashuv. Pedagogik muloqotning kommunikativ, interaktiv va perseptiv tomonlari yaxlit tizim sifatida ko'rib chiqildi va sun'iy intellekt ning har bir elementga ta'siri alohida tahlil qilindi. **Natijalar:** Adabiyotlar tahlili, qiyosiy tahlil va tizimli yondashuv asosida olib borilgan ushbu nazariy tadqiqot bir qator muhim natijalarni ko'rsatdi. Natijalar ikki asosiy yo'nalishda sun'iy intellekt ning pedagogik muloqotga ijobiy ta'siri va salbiy ta'siri doirasida bayon etiladi. Sun'iy intellektning pedagogik muloqotga ijobiy ta'siri: Birinchidan, sun'iy intellekt texnologiyalari ta'lim jarayonini individuallashtirish imkoniyatini sezilarli darajada oshiradi. Holmes, Bialik va Fadel asarlari tahlili asosida aniqlangandek, sun'iy intellekt tizimlari har bir o'quvchining bilim darajasi, o'zlashtirish sur'ati va qiziqishlariga qarab ta'lim mazmunini moslashtirib beradi. Ikkinchidan, sun'iy intellekt vositalari o'qituvchining ma'muriy va texnik yukini kamaytirish orqali pedagogik muloqotga ajratiladigan vaqtni ko'paytiradi. Sun'iy intellektning pedagogik muloqotga salbiy

ta'siri: Birinchidan, Leontyev nazariyasiga ko'ra pedagogik muloqotning kommunikativ, interaktiv va perseptiv tomonlari yaxlit birlikda ishlashi lozim. sun'iy intellekt sharoitida kommunikativ tomon rivojlanayotgan bo'lsa-da, interaktiv va perseptiv tomonlar o'zaro ta'sir va bir-birini his qilish sustlashib bormoqda. Ikkinchidan, Kan-Kalik tasnifiga ko'ra pedagogik muloqotning eng samarali turi hamkorlikka asoslangan muloqot o'qituvchi va o'quvchining birgalikda fikrlashini talab qiladi. sun'iy intellekt ning ortiqcha qo'llanilishi o'quvchining mustaqil fikrlash ko'nikmasini susaytirib, uni tayyor javob olishga o'rgatib qo'yishi mumkin. Uchinchidan, UNESCO hisobotida ta'kidlanganidek, sun'iy intellekt ning jadal kirib kelishi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida "raqamli vositachilik" hodisasini yuzaga keltirmoqda. Jonli, yuzma-yuz muloqot hajmi qisqarib borayotganligi ayniqsa kichik yoshdagi o'quvchilar uchun jiddiy xavf hisoblanadi. To'rtinchidan, o'zbek ta'lim muhiti uchun xos muammo sifatida raqamli tengsizlik masalasi aniqlandi. Shahar va qishloq maktablari o'rtasidagi texnologik tafovut hali ham katta bo'lib, bu SI dan foydalana oluvchi va foydalana olmaydigan o'quvchilar o'rtasida pedagogik muloqot sifatida ham keskin farq paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin.

### MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, sun'iy intellekt texnologiyalarining pedagogik muloqotga ta'siri bir tomonlama emas, u bir vaqtning o'zida ham imkoniyatlar, ham jiddiy xavflarni o'z ichiga oladi. sun'iy intellekt ning ta'lim jarayoniga kirib kelishi o'qituvchi vazifasini yo'q qilmaydi, balki uni o'zgartiradi. O'qituvchi texnik va ma'muriy yukdan ozod bo'lib, o'z e'tiborini asosan jonli muloqot, emotsional qo'llab-quvvatlash va ijodiy hamkorlikka qarata oladi. Biroq, sun'iy intellekt ning ortiqcha yoki noto'g'ri qo'llanilishi pedagogik muloqotni yuzakilashtirishi, o'quvchining mustaqil fikrlash va o'qituvchi bilan bevosita muloqot qilish istagini susaytirishi mumkin. Leontyev va Kan-Kalik nazariyalari doirasida tahlil qilganda, sun'iy intellekt kommunikativ tomonni axborot uzatishni samarali qo'llab-quvvatlashi mumkin. Ammo pedagogik muloqotning eng muhim qismi o'zaro his qilish, tushunish va hamkorlikka asoslangan fikrlash faqat jonli insoniy munosabatlar orqali to'liq amalga oshiriladi. Demak, sun'iy intellekt qanchalik

rivojlangan bo'lmasin, u haqiqiy pedagogik muloqotning o'rnini bosa olmaydi. O'zbek ta'lim muhiti uchun esa alohida e'tibor talab qiladigan ikki muammo mavjud: o'qituvchilarning sun'iy intellekt bilan ishlash pedagogik ko'nikmalarining yetarlicha shakllanmaganligi va shahar hamda qishloq maktablari o'rtasidagi raqamli tengsizlik. "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi texnik infratuzilmani rivojlantirishga katta e'tibor qaratayotgan bo'lsa-da, aynan shu ikki masalaga alohida yondashuv ishlab chiqilishi zarur.

### XULOSA

Ushbu tadqiqot davomida, sun'iy intellekt — bu vosita, o'qituvchi emas. U qanchalik rivojlangan bo'lmasin, insoniy muloqotning o'rnini to'liq bosa olmaydi. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi jonli aloqa, o'zaro ishonch, emotsional qo'llab-quvvatlash va hamkorlikka asoslangan fikrlash bularning barchasi faqat haqiqiy pedagogik muloqot orqali amalga oshiriladi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt texnologiyalarini inkor etish ham to'g'ri emas. To'g'ri va o'ylangan tarzda qo'llanilganda sun'iy intellekt o'qituvchining yukini kamaytiradi, ta'limni individuallashtiradi va o'quvchiga qo'shimcha ko'mak beradi. Masalan, sun'iy intellekt dan foydalanish yoki foydalanmaslikda emas masala uni qanday va qay darajada qo'llashda. O'zbek ta'lim muhiti uchun esa bu masala ayniqsa dolzarb, jonli pedagogik muloqotni asrab qolish va raqamli tengsizlikni bartaraf etish masalalariga alohida e'tibor qaratilishi zarur. Umuman olganda, sun'iy intellekt texnologiyalari pedagogik muloqotni yo'q qilmaydi, lekin e'tiborsiz qoldirilsa, uni yuzakilashtirishi mumkin. Shu sababli o'qituvchi har qanday sharoitda ham ta'lim jarayonining markazida qolishi, sun'iy intellekt esa uning ishonchli yordamchisiga aylanishi lozim. Shundagina texnologiya va insoniy muloqot uyg'unligi ta'minlanib, ta'lim o'z asosiy maqsadi shaxsni kamol toptirishga xizmat qila oladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Holmes W., Bialik M., Fadel C. Artificial Intelligence in Education. — Boston: Center for Curriculum Redesign, 2022. — 180 p.
2. Kan-Kalik V. A. Uchitelyu o pedagogicheskoy obsheni. — Moskva: Prosvesheniye, 1987. — 190 s.
3. Leontyev A. A. Pedagogicheskoye obsheniye. — Moskva: Pedagogika, 1979. — 148 s.
4. Mirzayev A. Sun'iy intellekt va ta'lim: imkoniyatlar va muammolar // Pedagogika jurnali. — 2022. — №3. — B. 45–51.

5. O'zbekiston Respublikasi "Raqamli O'zbekiston — 2030" davlat strategiyasi. — Toshkent, 2020.
- 6 Raxmonov.I. "Raqamli transformatsiya sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning universal kompetensiyalarini rivojlantirish". // NamDU axborot nomasi. –2026–3-son. //b-1315-1319
7. UNESCO. AI and Education: Guidance for Policy-makers. — Paris: UNESCO, 2023. — 66 p.
8. Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. — Cambridge: Harvard University Press, 1978. — 159 p.
9. Yusupova N. Raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayoniga ta'siri // Zamonaviy ta'lim. — 2021. — №7. — B. 33–39.